



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
DAVLAT TEST MARKAZI

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____ F.I.O. _____ Imzo _____

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varagi'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: **32**

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyoti

Blok 2: Matematika (informatika bilan)

Blok 3: Fizika

Savollar kitobi raqami: **5093518**

Toshkent – 2015



ONA TILI VA ADABIYOTI

- 1.** "Tortib olib bo'lmasa, sotib olib bo'lmasa, xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!"
 "Alpomish" dostonidan olingan ushbu parcha kimning tilidan aytigelan?
 A) Shohimardon pir B) Boysari C) Boybo'ri
 D) Yartiboy
- 2.** Quyida keltirilgan gapda nechta yasama so'z qatnashgan?
Birdan eshik ochildi. Yonboshlab, bag'rini Sovuq ko'rpgaga burkab yotgan cholning ko'zlar xiralashib qolgan, nursiz edi.
 A) 5 B) 4 C) 2 D) 3
- 3.** Ko'zlarim hali harf tanimas edi,
Qalam ushlolmasdi hali qo'llarim.
 Kapalak izidan quvib tinmasdim,
Yulduzlarni sanar edim tunlari. (M.Boboyev)
 She'riy parchada necha o'rinda qarashlilik ma'nosini bildirgan egalik qo'shimchalari qo'llangan?
 A) 2 B) 4 C) 3 D) 5
- 4.** Ham ot, ham sifat yasovchi shakldosh qo'shimchalarni aniqlang.
 A) -kash, -ch, -la B) -lik, -zor, -ar C) -qi, -choq, -in
 D) -li, -kash, -im
- 5.** Bu qasidam senga, xalqim,
 Oq sut-u tuz hurmati,
 Erkin o'g'lingman, qabul et,
 O'zbegim, jon o'zbegim.
 Ushbu parchadagi ot kesimlar soni nechta?
 A) 4 ta B) 2 ta C) 1 ta D) 3 ta
- 6.** Sifat+ot qolipidagi joy nomini bildiruvchi so'zlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
 1) Issiqko'l; 2) Yangiobod; 3) Yangiyer; 4) Atirgul; 5) Kichik Osiyo; 6) Oltiariq; 7) Yangibozor; 8) O'rta Chirchiq;
 9) Mehnatobod
 A) 1, 3, 5, 7, 8 B) 1, 3, 6, 7, 8, 9 C) 1, 2, 3, 5, 8, 9
 D) 1, 2, 4, 5, 8
- 7.** Odamlarni ma'naviy, madaniy, siyosiy fikr maydonlariga tortish, har bir fuqaroni uning yoshidan qat'i nazar, shu maydonning qatnashchisiga aylantirish bizning eng samarali yo'limizdir.
 Gapda qaysi bo'lak uyushganligini aniqlang.
 A) faqat aniqlovchi B) faqat ega C) aniqlovchi va ega
 D) to'ldiruvchi, aniqlovchi, ega
- 8.** Bu bog'lar Samarqanddagi boshqa bog'lardan o'zining tengsiz tarovati, ulug'vorligi hamda go'zal nafosati bilan ajralib turar edi.
 Ushbu gapda so'zlar o'zarlo bog'lanib, necha o'rinda moslashuvli tobe bog'lanish hosil qilgan?
 A) 3 B) 4 C) 1 D) 2
- 9.** O'tgan avlod-ajdodlarimiz bizga Vatanni meros qilibgina goldirgan emaslar, balki bu Vatanni chin yurakdan sevishni, unga fidokorlik bilan xizmat qilishni, uning husniga husn, boyligiga boylik qo'shishni ham meros qilib goldirishgan.
 (O.Sharaiddinov)
 Gapdagisi sodda yasama so'zlarning sintaktik vazifasini aniqlang.
 A) to'ldiruvchi, aniqlovchi B) hol, to'ldiruvchi
 C) ega, to'ldiruvchi D) to'ldiruvchi, kesim

- 10.** Qaysi gapda yetakchi qismi qo'shma fe'l bo'lgan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qatnashgan?
 A) Birpasgina bo'lsa ham gaplashib, meni tinchitib qo'ysang bo'lgani.
 B) Hayotdan saboq olib, yaxshilardan ibrat olib yasha, qizim!
 C) Bu gaplarni eshitgach, indamay qo'ya qoldi.
 D) U o'ziga berilgan savollarga tez-tez javob berib tashladi.
- 11.** Qaysi javobda bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalarga ikkitadan misol keltirilgan?
 A) nahotki, negaki, qadar, naq, hamda, ichra
 B) hatto, nihoyat, sayin, ya'ni, tufayli, va
 C) nahotki, hatto, naq, ya'ni, tufayli, uzra
 D) nahotki, basharti, uzra, agar, atigi, faqat
- 12.** Dunyo yasanib, jilva qilib oldimga keldi,
"Borgil nariga!" – deb ketig'a shattalab o'ttum.
 Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atni toping.
 A) tardi aks B) tarse' C) talmeh D) tashxis
- 13.** Ayo g'uncha, qizil qonlar aro sen o'zni tark etding,
Ayon etgil, nadir sevgi, nadir ul o'zni tark etmoq.
 (Rumi)
 Berilgan baytda olmoshlar necha o'rinda qo'llangan?
 A) 7 B) 6 C) 4 D) 5
- 14.** Mirzaqul yerga qaradi va boshiga telpagini qaytadan kiyди.
So'ng nimanidir aytmoqchi bo'lib taraddudlandi-yu, lekin aytmay, indamay qo'ya qoldi.
 Ushbu gapdagagi ravishlar sonini toping.
 A) 2 ta B) 1 ta C) 3 ta D) 4 ta
- 15.** Dunyoda birinchi haydovchilik guvohnomasi Germaniyada 1910-yilden boshlab joriy etilgan.
 Tovush o'zgarishiga uchragan so'z haqida to'g'ri fikrni aniqlang.
 A) bir quyi keng unli boshqa keng unliga o'zgargan
 B) tor unli keng unliga o'zgargan
 C) portlovchi tovush tushgan
 D) jarangli undosh jarangsizga o'zgargan
- 16.** Najmiddin Kubroning qaysi nomi (laqabi) "balo-qazolarning oldini oluvchi, buyuk bashoratchi" degan ma'noni anglatadi?
 A) Najmiddin B) Tummat ul-kubro C) Valiytarosh
 D) Abuljannob
- 17.** Ot+ot kompozitsiyasidan hosil qilingan, narsani boshqa narsaga qiyoslash ma'nosini anglatuvchi, tarkibida undoshlar va og'izning ochilish darajasiga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'lgan unlilargina qatnashgan ot(lar)ni aniqlang.
 1) ko'zoynak; 2) oshqovoq; 3) oybolta; 4) qo'yko'z;
 5) toshbag'ir
 A) 3 B) 2, 3 C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5
- 18.** Hayosizdan aslo vafo istama,
Vafosizdan aslo hayo istama.
 Ushbu hikmatli satrlar Ogahiyning qaysi janrdagi asaridan olingan?
 A) qit'a B) tuyuq C) qasida D) g'azal
- 19.** Qaysi javobda turkiy tillarning qipchoq guruhiiga kirmaydigan tillar qatori berilgan?
 A) qirg'iz, yoqut, qo'miq B) tatar, turkman, qozoq
 C) qoraqalpoq, boshqird, tojik
 D) o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon

- 20.** "... Hamma ziyolilar "xalq dushmani" deb e'lon qilinib qamalmoqda. Na kunduz halovat bor, na tunda – uyquda. Har daqqa tashvish, har daqqa yurak titroqda. Biz bolalarni qo'rg'onda qaynota-qaynonamga qoldirib, ikki temir karavotni bog'ning chetiga ko'chirdik. (Go'yo bizni bog'dan topisholmaydiganday)... Ushbu xotiralar qaysi ijodkor rafiqasiga tegishli?
- A) Said Ahmad B) Hamid Olimjon C) Oybek
D) Abdulla Qahhor
- 21.** "Husayin Voiz Koshifiy Sharqda ma'lum va mashhur shaxsdir, – deb yozadi Najmiddin Komilov "Tafakkur karvonlari" asarida. – U Navoiyga bag'ishlab kitob yozgan, uning mehrini qozongan yaqin kishisi, muixlisi, do'sti edi". Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gapda qaysi bo'lak(lar) uyushgan?
- A) kesim, ega B) aniqlovchi, ega C) aniqlovchi, kesim
D) kesim
- 22.** "Alpomish" dostonida "... Yusuf tal'atl, Rustam sifatli, chovkar otli..." ta'rifi kimga nisbatan ishlatalig'an?
- A) Alpomishga nisbatan B) Yortiboyga nisbatan
C) Ko'kaldoshga nisbatan D) Qorajonga nisbatan
- 23.** Qaysi gapdagi xatolik tinish belgisi bilan bog'liq emas?
- A) Polyak olimi Yer, Quyosh atrofida aylanishiga doir nazariyaga asos soldi.
B) Sharq adabiyotida birinchi bo'lib Xamsa yozgan ijodkor buyuk ozarbajyon shoiri Nizomiy Ganjaviydir.
C) 31 avgust kuni Toshkent shahridagi "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuida qatag'on qurbanlarini yod etish marosimi o'tkazildi.
D) Respublikaning Ma'naviyat va ma'rifat kengashi, hozirda Inson huquqlari milliy markazi, Oila markazi, Ijtimoiy fikr markazi kabi tashkilotlar bilan birga mafkuraviy ishlarni kuchaytirmoqda.
- 24.** Barchamizga ma'lumki, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuraqida Vataniga muhabbat tuyg'usi ildiz otib ulg'ayar ekan. Ushbu gapda bir tovushdan iborat qo'shimchalar miqdori nechta?
- A) 5 ta B) 6 ta C) 7 ta D) 4 ta
- 25.** Tasavvufda nay nimaning ramzi hisoblanadi?
- A) ishq bilan to'lgan qalbning B) yor qaddining
C) kuyning D) vasl sarxushligining
- 26.** Qaysi qatorda yasama fe'l vositasiz to'ldiruvchiga bog'lanib kelgan?
- A) Yoqimi yoz shabadasi endigina unib chiqqan yosh nirollarga huzur bag'ishlardi.
B) U o'z savollariga javob beradigan odamni kutib kunni kech qildi.
C) Bu ovoz hali mag'zi ilimagan dalalarga, osmondag'i oqimtir yulduzlarga tegib aks-sado berayotgandek edi.
D) Bola boshini qo'llari orasiga qo'yib, Boysun tog'i uzra charx urayotgan bulutlarga qarab jim qoldi.
- 27.** Qaysi gapda yasama otdan hosil bo'lgan sifat ishtirok etgan?
- A) Sergaplik odamlar ichida qadrin ni tushiradi.
B) Menga o'xshagan esli-hushli bolaga zoriqib o'tirgan ekan.
C) Kutilmagan quvonchli xabardan boshi aylanib ketdi.
D) Tinchlik oliy ne'mat ekanligini unutmang.
- 28.** Yurak kerak doim hagni demoqqa,
Dilim yondi – isi tegdi dimoqqa
Sho'rlik elning farzandlari, botirlar,
Og'iz ochar faqat ovqat yemoqqa.
Ushbu she'riy parchada egasiz gaplar soni nechta?
- A) 2 ta B) 1 ta C) barchasi egali gap D) 3 ta
- 29.** Quyida berilgan qaysi g'azal vazni aruzning mafoiyun-mafoiyun-faulun(yoki mafoiy) vaznida yozilgan?
- A) "Jong'a chun derman: "Ne erdi o'lmakim kayfiyati? ..."
B) "Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmad..."
C) "Ayoqingga tushar har lahza gisu..."
D) "Qaro ko'zum, kelu mardumlig" emdi fan qilg'il..."
- 30.** Berilgan qaysi maqollar o'zaro ma'nodosh maqollar sanaladi?
- 1) Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kiradi.
2) Yolg'iz baloga indamasang, ko'payadi.
3) Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.
4) Oz-oz o'rganib dono bo'lur.
- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 1, 2 D) 1, 3, 4
- 31.** Qaysi asardagi personaj haqida "mehnat bilan yashab, yetti-sakkizni tug'ib, yoshi ham qirqlarg'a borib, tusiga ajin kirib, keksaymasa ham qarimsiq bo'lib qolq'an, shuning uchun birartaga tegib olishi to'g'risida o'ylash ham behuda" degan jumlalar keltirilgan?
- A) "O'tkan kunlar"da Jannat opa
B) "Mehrobdan chayon"da Anorbibi
C) "Kecha va kunduz"da Enaxonning onasi
D) "Otkan kunlar"da To'ybeka
- 32.** O'limas Umarbekovning qaysi asari detektiv yo'nalishda yozilgan asar hisoblanadi?
- A) "Odam bo'lish qiyin" B) "Oq qaldirg'och"
C) "Yoz yomg'iri" D) "Urush farzandi"
- 33.** Ko'makchi morfemasida quyi keng unlidan oldin ham, keyin ham jarangli til undoshi qatnashgan so'zni toping.
- A) kitobxon B) bormoqda C) guldon D) oshpaz
- 34.** Sanasak, faxr etadigan, arzirli muvaffaqiyatlar ko'p, ammo ular orasida, eng muhimi, hamma xalqqa suv-u havo kabi zarur – ulug' ne'mat – Tinchlik bayrog'i bilan yangi asrning issiq, nurli quchog'iga talpinyapmiz. Ushbu gapda nechta yasama so'z fonetik o'zgarishga uchragan?
- A) 4 ta B) 5 ta C) 3 ta D) 2 ta
- 35.** "Agar yulduzlar odamga aylanib qolsa bormi, osmon ularga torlik qilib qolardi". Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asaridan olingan ushbu fikrlar kimning tilidan aytilgan?
- A) shoxdor ona bug'u B) bola
C) Cho'tir Baymoq kampir D) Mo'min chol
- 36.** Navoiyning qaysi g'azallarida Xizr suvi timsoli keltirilib, talmeh san'ati yaratilgan?
- A) "Bo'l", "Deyin" radifli g'azallarida
B) "Bo'ldim senga", "Qilg'il" radifli g'azallarida
C) "Kelmadi", "Bo'ldim senga" radifli g'azallarida
D) "Bo'ldim senga", "Bo'l" radifli g'azallarida
- MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)**
- 37.** Tenglama ildizlari nechta? $\sqrt{3\log_2(-x)} - \log_2\sqrt{x^2} = 0$
- A) 2 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 1 ta
- 38.** x ning qanday qiymat(lar)ida barcha y lar uchun $2x - 12y + 8xy - 3 = 0$ tenglik o'rinchli bo'ladi?
- A) $\frac{3}{2}$ yoki $-\frac{1}{4}$ B) $\frac{3}{2}$ C) $-\frac{2}{3}$ yoki $-\frac{1}{4}$ D) $\frac{2}{3}$
- 39.** $\sqrt{3} \cdot 3^{\frac{x}{1+\sqrt{x}}} \cdot \left(\frac{1}{3}\right)^{\frac{2+\sqrt{x}+x}{2(1+\sqrt{x})}} = 81$ tenglamani yeching.
- A) 64 B) 36 C) 49 D) 81

40. $\log_{x^2-1}(x^4 - 4x^2 + 9) > 2$ tengsizlikni yeching.

- A) $(-\sqrt{2}; -1) \cup (1; \sqrt{2})$ B) $(-2; -\sqrt{2}) \cup (\sqrt{2}; 2)$
 C) $(-2; -1) \cup (1; 2)$ D) $(-\infty; -2) \cup (2; +\infty)$

41. $\sqrt[3]{x^2 - 3x} - \sqrt[3]{x^2 - 3x} - \sqrt[3]{x^2 - 3x} - \dots = 2$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.

- A) -15 B) -5 C) -12 D) -10

42. Ifoda qiymatining oxirgi raqamini toping.

$$2 \cdot 2014^{2015} - 3 \cdot 2013^{2014}$$

- A) 5 B) 0 C) 3 D) 1

43. Ifodani soddalashtiring.


$$\left(\frac{x - 0, (5)}{\sqrt[3]{x^2} + \sqrt[3]{\frac{5x}{9}} + \sqrt[3]{\frac{25}{81}}} + (0, (5))^{\frac{1}{3}} \right)^3$$

- A) x B) $x + 1$ C) $2x$ D) $x - 1$

44. $f(x) = 88\cos 9x \cdot \sin 13x$ uchun boshlang'ich funksiyani toping.

- A) $11\cos 4x - 2\cos 22x + C$ B) $11\sin 4x + 2\sin 22x + C$
 C) $-11\cos 4x - 2\cos 22x + C$ D) $11\sin 4x - 2\sin 22x + C$

45. Rasmda $y = f'(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. $[-3; 3]$ kesmada shu funksiyaning nechta ekstremum nuqtasi bor?



- A) 1 B) 2 C) 4 D) 3

46. $\left(\frac{3}{7}\right)^{\frac{x^2-2x}{x^2}} \geq 1$ tengsizlikni yeching.

- A) $(0; 2]$ B) $[0; 2]$ C) $(0; 2)$ D) $[0; 2)$


47. Teng yonli trapetsiyaning yon tomoni 10 ga teng, diagonalni esa o'rta chizig'ini 4,5 va 10,5 ga teng bo'lgan kesmalarga ajratadi. Trapetsiyaning yuzini toping.

- A) 110 B) 105 C) 115 D) 120

48. $3^{\log_4 5} - 5^{\log_4 3} + 7^{\log_8 1}$ ifodaning qiymatini toping.

- A) 3 B) 4 C) 2 D) 1

49. Rasmdagi ABC uchburchakda AD - ichki, CD - tashqi bissektrisa bo'lib, $AC = CD$ va $\angle B = 80^\circ$ bo'lsa, $\angle AEC = x^\circ$ ning qiymatini toping.



- A) 160° B) 120° C) 135° D) 150°

50. $x^2 - 4x + y^2 + 6y = 12$ tenglama bilan berilgan aylana uzunligini toping.

- A) 12π B) 10π C) 8π D) 11π

51. $|x^2 - 5ax| = 15a$ tenglama a ning qanday qiymatlarida 3 ta ildizga ega bo'lib, biri musbat qolgan ikkitasi esa manfiy bo'ladi?

- A) 2, 4 B) 3 C) \emptyset D) $(0; 2, 4)$

52. $f(x) = 5x^4 + e^x + 3$ funksiyaning $M(0; 2)$ nuqtadan o'tadigan boshlangich funksiyasini toping.

- A) $F(x) = x^5 + e^x - 3x + 2$ B) $F(x) = x^5 + e^x + 1$
 C) $F(x) = x^5 + e^x + 3x - 1$ D) $F(x) = x^5 + e^x + 3x + 1$

53. $(x^2 + 6x + 6)(x^2 + x + 6) = 6x^2$ tenglama haqiqiy ildizlari yig'indisini toping.

- A) -9 B) -6 C) -7 D) -8

54. $\left(+3\frac{1}{11}\right) \cdot \left(-1\frac{5}{17}\right) - \left((-3) \cdot \left(-5\frac{1}{3}\right) - (-1) : \left(-\frac{1}{16}\right)\right) + (-5, 12) : (-1, 28) \cdot (-8, 3 + 0, 35 - 2, 05 + 7)$ ni hisoblang.

- A) -8 B) -16 C) -32 D) -4

55. Agar $\frac{8}{a} - \frac{a}{2} = 0$ bo'lsa $\frac{2^4}{a^2} + \frac{a^2}{(-4)^2}$ ni hisoblang.

- A) 2, 5 B) 1 C) 2 D) 1, 5

56. $P(x)$ ko'phadni $x^2 - 5x + 6$ ga bo'lganda qoldiq $3x - 4$ bo'ldi. $P(x)$ ko'phadni $x - 3$ ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

- A) -4 B) 5 C) $x + 3$ D) 4

57. $\operatorname{ctg} x = \frac{\sqrt{10a - 16 - a^2}}{\sqrt{a^2 - 8a + 15}}$ tenglama a ning qanday qiymatlarida yechimga ega?

- A) $[2; 8]$ B) $[2; 3) \cup (5; 8]$ C) $[2; 3)$ D) $(5; 8]$

58. Agar $\vec{a}(\sqrt{27}; 2\sqrt{3}; -6)$ va $\vec{b}(\sqrt{20}; -\sqrt{6}; 6\sqrt{2})$ berilgan bo'lsa, $\left|\frac{\vec{b}}{\sqrt{2}}\right| - \left|\frac{\vec{a}}{\sqrt{3}}\right|$ ni toping.

- A) 5 B) 3 C) 1 D) 2

59. Ikki xonali sonning o'nliklari soni birliklari sonining $2/3$ qismiga teng. Bu sonni uning teskari tartibda yozilganidan ayirsak, ayirma 18 bo'ldi. Shu sonni toping.

- A) 46 B) 32 C) 48 D) 24

60. $\sqrt{11} + 9$ soni $x^2 + mx + n$ ko'phadning ildizi bo'lsa, m va n butun sonlar yig'indisini toping.

- A) 58 B) 52 C) 56 D) 54

61. Kvadratlarining ayirmasi 55 ga teng bo'lgan barcha natural sonlar juftligini toping.

- A) 8 va 3; 20 va 19 B) 28 va 27 C) 8 va 3; 28 va 27
 D) 28 va 27; 17 va 18

62. A nuqtadan α tekislikka ikkita $AB=15$ sm, $AC=20$ sm og'ma o'tkazilgan. AC og'manining α tekislikdagi proyeysiysi 16 sm bo'lsa, AB og'manining tekislikdagi proyeksiyasini (sm) toping.

- A) 9 B) 6 C) 12 D) 8

63. Teng yonli uchburchakning perimetri 52 sm. Agar uning asosi yon tomonining 0,6 qismini tashkil qilsa, unga tashqi chizilgan doira yuzini (sm^2) toping.

- A) $\frac{6\sqrt{91}}{13}$ B) $\frac{10000\pi}{91}$ C) $\frac{100\sqrt{91}}{91}$ D) $\frac{100\pi}{91}$

64. Diagonallarining soni tomonlarining sonidan 2 marta kam bo'lgan qavariq muttazam ko'pburchakning har bir uchidan bittadan olingan tashqi burchaklari va bitta ichki burchagi yig'indisini toping.

- A) 450° B) 360° C) 900° D) 540°

65. Fermer topshiriqni uch kunda bajardi. U birinchi kuni $12\frac{1}{2}$ ga yer haydadi, ikkinchi kuni $15\frac{3}{4}$ ga yer haydadi. Agar fermer kuniga o'rtacha $14\frac{1}{4}$ ga yer haydagan bo'lsa, uchinchi kuni necha hektar yer haydagan?
A) 16,5 B) 15,5 C) 13,5 D) 14,5

66. $\sin 3x + \sqrt{3} \cos 3x < 0$ trigonometrik tengsizlikni yeching.

- A) $\left(\frac{2\pi}{9} + k\pi; \frac{5\pi}{9} + k\pi\right); k \in \mathbb{Z}$
B) $\left(-\frac{\pi}{9} + k\pi; \frac{2\pi}{9} + k\pi\right); k \in \mathbb{Z}$
C) $\left(\frac{2\pi}{9} + \frac{2\pi k}{3}; \frac{5\pi}{9} + \frac{2\pi k}{3}\right); k \in \mathbb{Z}$
D) $\left(-\frac{\pi}{9} + \frac{2\pi k}{3}; \frac{2\pi}{9} + \frac{2\pi k}{3}\right); k \in \mathbb{Z}$

67. Ssital tayoqchasi yordamida kodlash usuli qanday nomlanadi?

- A) o'rin almashtirish B) aralashtrilgan alifbo
C) Morze usuli D) alifboni surish

68. Quyidagi mantiqiy tenglamaning yechimlari sonini aniqlang:
 $\neg A \wedge \neg B \vee C =$ yolg'on
A) 1 B) 4 C) 5 D) 3

69. Kompyuterdag'i Command.com faylining vazifasi nimadan iborat?

- A) matnli faylni hosil qilish
B) operatsiya sistemani faollashtirish
C) foydalanuvchi buyruqlarini bajarish
D) ma'lumotlarni kiritish-chiqarish qurilmalarini faollashtirish

70. $| (3^4 + 9^{1/2}) |$ ifodaning Microsoft Excel 2003 dasturidagi to'g'ri formula ko'rinishini toping.
A) =ABS(Корень((3;4) + Степень (9)))
B) =ABS((Степень(3;4) +Корень(9)))
C) =ABC(Степень(3;4) +Корень(9)))
D) =ABS(Степень(3;4) +Корень(9;1/2)))

71. HTML tilida jadvaldag'i ustunlarni birlashtirish uchun <TH> tegida qanday parametr qo'llaniladi?
A) BORDERCOLOR B) CAPTION C) COLSPAN
D) ROWSPAN

72. Paskal tilida quyidagi dastur lavhasi takrorlanish operatoridagi takrorlanishlar sonini aniqlang:
I:=0; While ((I>0) and (I<=100)) do begin I:=I+11;
P:=I*I;end;
A) 0 marta B) 11 marta C) 9 marta D) 10 marta

FIZIKA

73. Agar zarra energiyasi m_0c^2 bo'lsa, uning impulsi nimaga teng?
A) m_0c B) $2m_c^2$ C) 0 D) $2m_0c$

74. Inersial sanoq sistemasiga nisbatan v tezlik bilan harakatlanayotgan jismning massasi 10% ga oshgan bo'lsa, uning zinchligi qanday o'zgaradi?
A) 10% ga oshadi B) 10% ga kamayadi
C) 21% ga kamayadi D) 21% ga oshadi

75. Qandaydir sayyorada jism 36 m balandlikdan 6 s da tushgan. Bu sayyorada erkin tushish tezlanishi qanday (m/s^2)?
A) 2 B) 4 C) 25 D) 10

76. Kichik porshenining yuzi 20 sm^2 bo'lgan gidravlik press katta porshenining yuzi 60 sm^2 ga teng. Kichik porshenga 12 N kuch ta'sir qilinganda katta porshenda qancha kuch (N) hosil bo'ladi?
A) 36 B) 32 C) 16 D) 34
77. Ikkiti elementar zarracha bir nuqtadan chiqib, shu nuqtaga nisbatan biri $0,4c$, ikkinchisi $0,5c$ tezliklar bilan qarama-qarshi tomonga uchib ketdi. Zarrachalarning bir-biriga nisbatan tezligini toping. c – yorug'likning vakuumdagi tezligi.
A) $0,75c$ B) $0,9c$ C) c D) $0,1c$
78. Ideal issiqlik mashinasi isitkichining harorati 900 K, sovutkichiniki esa 300 K. Agar bir sikl davomida mashina dvigateli isitkichdan 15 kJ issiqlik olgan bo'lsa, u bu davrda qancha ish (kJ) bajargan?
A) 10 B) 5 C) 22,5 D) 15
79. $18 \mu F$ sig'imli kondensator 10 V kuchlanishga ega bo'lgan tok manbaiga ulangan. Tashqi kuchlar ish bajarib, kondensator qoplamlarini bir-biridan uzoqlashtirgan va uning yangi sig'imi $15 \mu F$ bo'lib qolgan. Bunda bajarilgan ish (μJ) nimaga teng?
A) 150 B) -150 C) 300 D) 600
80. Ikki ideal tebranma konturda so'nmaydigan elektromagnit tebranishlar ro'y bermoqda. Birinchi konturdagi tok kuchining amplitudasi 3 mA. Birinchi konturga nisbatan ikkinchi konturdagi tebranishlar davri uch marta ortiq, kondensatoridagi zaryadning maksimal qiymati esa 6 marta ortiq bo'lsa, ikkinchi konturdagi tok kuchining amplitudasi nimaga teng?
A) 6 mA B) 2/3 mA C) 3 A D) 3/2 mA
81. Tok generatorining yakoridagi o'ramlar soni 600 dan 1000 tagacha orttirilib, yakorning aylanish tezligi o'zgartirildi. Bunda generatorda hosil bo'layotgan induksion EYKning maksimal qiymati 60 V dan 120 V gacha oshgan bo'lsa, yakorning aylanish chastotasi qanday o'zgarganligini toping.
A) $5/6$ marta kamaygan B) $6/5$ marta kamaygan
C) 2 marta ortgan D) 1,2 marta ortgan
82. Hajmi 32 litr bo'lgan mis jismning og'irligi (N) nimaga teng? Misning zinchligi $8,9 \text{ g/sm}^3$
A) 27,91 B) 279,1 C) 2791 D) 2,791
83. Uchiga 40 N yuk osilgan richag uzunligining oltidan bir qismiga tayanch qo'yilgan bo'lsa, bir jinsli richag massasini (kg) aniqlang. $g=10 \text{ N/kg}$.
A) 2 B) 3 C) 1 D) 4
84. Avtobusdag'i yo'lovchilar o'ngga og'ishganda avtobus qaysi tomonga buriladi?
A) tezligini kamaytiradi B) tezligini orttiradi
C) chap tomonga D) o'ng tomonga
85. 295 N kuch ta'sirida massasi 55 kg bo'lgan jismni qo'zg'aluvchan blok yordamida 8 m balandlikka ko'tarildi. Blokning FIKni nimaga (%) teng? $g=10 \text{ m/s}^2$.
A) 90 B) 55 C) 93 D) 83
86. Ko'tarma kran 1,2 tonna yukni 30 m/min tezlik bilan ko'tarmoqda. 380 V kuchlanishga mo'ljallangan dvigateldagi tok kuchi 20 A bo'lsa, kranning FIKni (%) aniqlang.
A) 35 B) 79 C) 52 D) 29
87. 3 sm uzunlikdagi igna yupqa yig'uvchi linzadan 40 sm masofada linzaning bosh optik o'qiga nisbatan tik ravishda joylashgan. Linzaning optik kuchi 4 dptr. Ignaning tasviri qanday uzunlikka (sm) ega?
A) 2 B) Z C) 6 D) 5

88. FIK nimani anglatadi?

- A) bajarilgan ishning necha foizi foydali ishga sarflanishini
- B) foydali ishning qancha qismi bajarilgan ishga sarflanishimi
- C) bajarilgan ishni oshirish koefitsiyentini
- D) foydali ishni oshirish koefitsiyentini

89. $C_1=3 \mu\text{F}$; $C_2=6 \mu\text{F}$; $C_3=9 \mu\text{F}$ sig‘imli kondensatorlar parallel ulagan. Umumiyligini (μF) toping.

- A) 18
- B) 54
- C) 9
- D) 162

90. 150 g suvni 10°C dan 15°C gacha isitish uchun ko‘p energiya kerakmi yoki 150 g muzni -5°C dan 0°C gacha isitish uchunmi? Nеча marta? Suv va muzning solishtirma issiqlik sig‘imlari mos ravishda $4200 \frac{\text{J}}{\text{kg} \cdot {}^\circ\text{C}}$ va $2100 \frac{\text{J}}{\text{kg} \cdot {}^\circ\text{C}}$.

- A) Muzni, 4 marta ko‘p
- B) Suvni, 4 marta ko‘p
- C) Suvni, 2 marta ko‘p
- D) Muzni, 2 marta ko‘p

91. $\vec{v} = \text{const}$ tenglik qanday harakatni ifodalaydi?

- A) to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tekis harakatni
- B) aylana bo‘ylab tezligining son qiymati o‘zgarmas bo‘lgan harakatni
- C) to‘g‘ri chiziq bo‘ylab teng vaqtlar oralig‘ida bosib o‘tadigan yo‘li bir xil oshib boradigan jismning harakatini
- D) aylana bo‘ylab teng vaqtlar oralig‘ida bir xil uzunlikdagi aylana yoyini bosib o‘tadigan jismning harakatini

92. Massasi 20 g bo‘lgan sharcha bikrligi 2000 N/m bo‘lgan prujinaga qanday balandlikdan (m) tushganida prujina 1 sm ga siqiladi?

- A) 0,5
- B) 4
- C) 2
- D) 8

93. Bikrliги k bo‘lgan prujina F kuch ta’sirida 0,02 m ga cho‘zildi. Agar prujinaning $1/5$ qismini kesib tashlab, qolgan qismiga yana shu kuch ta’sir ettirilsa, uning nisbiy deformasiyasini qanday o‘zgaradi?

- A) 3 marta ortadi
- B) 1,5 marta ortadi
- C) 1,5 marta kamayadi
- D) o‘zgarmaydi

94. $M = 40 \text{ kg}$ massa va $V=600 \text{ m/s}$ tezlikka ega bo‘lgan snaryad portlab ikki bo‘lakka bo‘lindi, $M/4$ massa va V tezlikka ega bo‘lgan birinchini bo‘lak dastlabki yo‘nalishiga nisbatan $\pi/4$ burchak ostida uchib ketdi. Ikkinchini bo‘lakning impulsini snaryadning dastlabki impulsidan necha marta katta?

- A) 3,3
- B) 0,32
- C) 0,84
- D) 2,65

95. Quyidagi predmetlarning qaysi biri yordamida rentgen nurlarining difraksiyasini kuzatish mumkin?

- 1) 1 mm da 500 shtrixi bo‘lgan difraksion panjara;
- 2) qattiq jismarning kristall panjarasi;
- 3) diametri $0,01 \text{ mm}$ bo‘lgan tirqish;
- 4) diametri $0,01 \text{ mm}$ bo‘lgan tola.

- A) 1,2,3,4
- B) 1,3,4
- C) 2
- D) 1

96. Agar dastlabki tebranishlarning energiyasi W bo‘lsa, tebranishlar amplitudasi uch marta kamayganida ajralib chiqqan energiyani toping.

- A) $W/3$
- B) $W/9$
- C) $\frac{5}{12}W$
- D) $\frac{8}{9}W$

97. Orasidagi masofa 10^{-10} m bo‘lgan proton va neytronlar o‘rtasida qanday kuchlar mavjud bo‘ladi?

- A) yadroviy
- B) gravitasion
- C) elektrostatik
- D) gravitasion va yadroviy

98. Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni to‘g‘ri yozilgan javobni aniqlang.

- A) $I = \frac{A}{Q}$
- B) $I = \frac{U}{R}$
- C) $I = \frac{Q}{t}$
- D) $\frac{I_1}{I_2} = \frac{U_1}{U_2}$

99. Kub shaklidagi idishning tomonlari 10 sm , idish suvgaga to‘ldirilgan. Idishning bir yon sirtiga suvning bosim kuchi (N) hisoblansin. Atmosfera bosimi hisobga olinmasin, $g=10 \text{ m/s}^2$

- A) 8
- B) 6
- C) 4
- D) 5

100. O‘zgaruvchan tok manbaiga ulagan 90Ω aktiv qarshilikka ega bo‘igan rezistorda tok kuchi $i = 0,141 \cdot \sin(100t)$ (A) qonun bo‘yicha o‘zgaradi. Rezistorda tushayotgan kuchlanishning ta’sir etuvchi qiymatini (V) toping.

- A) 12,7
- B) 45
- C) 22,5
- D) 9

101. Diffuziya qanday moddalarda bo‘lishi mumkin?

- A) faqat suyuqlik va qattiq jismalarda

- B) faqat gazlarda

- C) faqat gaz va suyuqliklarda

- D) gazlar, suyuq va qattiq moddalarda

102. Latun chizg‘ich uzunligi t_0 haroratda l_0 ga, t_1 haroratda l ga teng bo‘lsa, latunning chiziqli kengayish koefitsienti qanday bo‘ladi? $\Delta t = t_1 - t_0$

- A) $\frac{l_0}{(l-l_0)\Delta t}$
- B) $\frac{l-l_0}{l\Delta t}$
- C) $\frac{l-l_0}{l_0\Delta t}$
- D) $\frac{l-l_0}{l_0\Delta t_0}$

103. 2,5 kg massali modda 25°C ga qizdirilganda $57,5 \text{ kJ}$ issiqlik miqdori olgan bo‘lsa, uning solishtirma issiqlik sig‘imi $\left(\frac{J}{\text{kg} \cdot {}^\circ\text{C}}\right)$ nechaga teng?

- A) 880
- B) 140
- C) 2100
- D) 920

104. Gidravlik pressning kichik porsheni 600 N kuch ta’siri ostida 12 sm pastga tushirildi. Bunda katta porshen 4 sm ko‘tarildi. Katta porshenda qanday kuch (kN) hosil bo‘ladi?

- A) 1800
- B) 1,8
- C) 18
- D) 180

105. Yerning massasi Oyning massasidan 81 marta ortiq . Oyning Yerga gravitatsion ta’sir kuchining Yerning Oyga gravitatsion ta’sir kuchiga nisbatli topilsin.

- A) 1
- B) $1/81$
- C) $9/1$
- D) $1/9$

106. Yassi ko‘zgu o‘z tekisligiga tik yo‘nalishda $1,8 \text{ sm/s}$ tezlik bilan yorug‘lik manbai tomon harakatlanmoqda. Ko‘zgudagi tasvir qo‘zg‘almas bo‘lishi uchun yorug‘lik manbai qanday tezlik bilan (sm/s) harakatlanishi kerak?

- A) 5,4
- B) 3,6
- C) 1,8
- D) 0,9

107. Tebranish konturi induktivligi $0,3 \text{ mH}$ bo‘lgan g‘altak, sig‘imi $3 \mu\text{F}$ bo‘lgan kondensator va kalitdan iborat. Kondensator 12 V kuchlanishgacha zaryadlandi. Kalit ulanganidan so‘ng $31,4 \mu\text{s}$ vaqt o‘tgach zaryad o‘zgarishi fazasining oniy qiymatini necha radianga teng bo‘ladi? Boshlang‘ich faza nolga teng.

- A) π
- B) $\pi/4$
- C) $\pi/3$
- D) $\pi/2$

108. Zanjirga kesimi S bo‘lgan L uzunlikdagi sim ulanganda U kuchlanishdagi tok kuchi I bo‘lgan. O‘tkazgich moddasining solishtirma qarshiligi qanday?

- A) $\frac{IL}{US}$
- B) $\frac{UL}{IS}$
- C) $\frac{US}{IL}$
- D) $\frac{USL}{I}$